

BIOGENETIK NAZARIYA MOHIYATI VA TANQIDIY TAHLIL

Saparboyeva Feruza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim Fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 - kurs talabasi:

saparboyevaferuza@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafidrasini o'qtuvchisi

Ilmiy rahbar: Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

olimjonozodqulov30@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17896740>

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada biogenetik nazariyaning mazmuni, ontogenez va filogenez o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, Gekkel tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning hozirgi zamon biologiyasidagi talqini yoritildi. Nazariya mohiyati, uning ilmiy ahamiyati hamda zamonaviy fan nuqtai nazaridan tanqidiy tahlili misollar asosida bayon qilindi. Shuningdek, nazariyaning kuchli va zaif jihatlari hamda evolyutsion biologiyaga qo'shgan hissasi ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: biogenetik nazariya, ontogenez, filogenez, evolyutsiya, embrion, rivojlanish biologiyasi.

Annotation: This scientific article examines the essence of the biogenetic theory, the relationship between ontogenesis and phylogenesis, and the modern interpretation of Haeckel's ideas. It analyzes the theoretical foundations of biogenetic concepts, their significance for evolutionary biology, and the critical views that emerged with the advancement of genetics and developmental biology. The strengths and limitations of the theory are also discussed.

Keywords: biogenetic theory, ontogenesis, phylogenesis, evolution, embryo, developmental biology.

KIRISH

Biogenetik nazariya XIX asr biologiyasining muhim ilmiy yutuqlaridan biri bo'lib, Ernst Gekkel tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, tirik mavjudotlarning individual rivojlanishi - ontogenez, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlarini - filogenezni ma'lum darajada takrorlaydi. Gekkel bu g'oyani "Ontogenez - filogenezning qisqa takroridir" degan mashhur formulasi orqali umumlashtirgan.

Masalan, inson embrioni rivojlanishining dastlabki bosqichlarida boshqa umurtqali hayvonlarga xos ayrim anatomik belgilarning vaqtinchalik namoyon bo'lishi ushbu nazariyaning dalili sifatida keltirilgan.

1. Biogenetik nazariya tushunchasi va uning mohiyati:

Biogenetik nazariya tirik organizmlarning individual rivojlanish jarayonida ularning ajdodlariga xos belgilar saqlanib qolishini ta'kidlaydi. Gekkelning fikricha, embrion rivojlanishi - evolyutsiya tarixining qisqartirilgan shaklidir.

Misol: odam embrionida dastlabki haftalarda bo'yin yorig'iga o'xshash strukturalar bo'lishi, umurtqali hayvonlarning umumiy rivojlanish bosqichlarini eslatadi.

2. Nazariyaning ilmiy asoslari va evolyutsion biologiyadagi o'rni:

Biogenetik nazariya evolyutsion fikrning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, quyidagi jihatlari bilan muhim:

- embrion rivojlanishida turli organizmlar o'rtasidagi o'xshashliklarni ilmiy izohlash;

- turlar umumiy ajdodlardan kelib chiqqanligini ko'rsatish;
- taqqoslamali embrionologiya va morfologiya uchun asos yaratish.

Masalan: barcha umurtqali hayvonlarning embrionlari dastlabki bosqichlarda juda o'xshash morfologik tuzilishga ega bo'lishi.

3. Nazariyaning tanqidiy tahlili

Zamonaviy biologiya biogenetik nazariyani to'liq tasdiqlamaydi. Tanqidiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- embrion rasmlarining ba'zilar Gekkel tomonidan sun'iy ravishda o'xshatib chizilganligi ilmiy bahslarga sabab bo'lgan;
- ontogenez filogenezni to'liq takrorlamaydi, balki faqat ayrim umumiy bosqichlarni aks ettiradi;
- genetik tadqiqotlar rivojlanishi embrion rivojlanishining o'ziga xos, mustaqil qonuniyatlarini isbotladi;
- yangi strukturalar rivojlanishda paydo bo'lishi filogeneznining individual rivojlanishga to'g'ridan - to'g'ri bog'lanmaganini ko'rsatadi.

Misol: ba'zi hayvonlarda embrion bosqichlarida uchraydigan tuzilmalar kattalarida mavjud bo'lmaydi, bu filogenezni to'liq takrorlash emasligini bildiradi.

XULOSA

Biogenetik nazariya biologiya tarixida muhim o'rin tutadi va evolyutsion ta'limot shakllanishida katta ahamiyatga ega. Hozirgi ilm-fan ushbu nazariyani qisman tasdiqlaydi, qisman esa inkor etadi. Ontogenez filogeneznining to'liq takrori emas, balki uning ayrim izlarini o'zida aks ettiruvchi murakkab jarayon sifatida talqin qilinadi. Shunga qaramay, bu nazariya evolyutsion biologiyaning shakllanishi va rivojlanishida bebaho ilmiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xolmuhammedova, S. (2023).
2. Yuldasheva, N. S. (2023).
3. To'rayeva, B., & Ko'chimov, U. (2022).
4. Qani, M. I. (2025).
5. Salaev, U., Kuriyozov, E., & Go'mez - Rodríguez, C. (2022). Rahmatullayev, Sh. (2006).
6. Shomaqsudov, A., & boshqalar. (1983).
7. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110 - 113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>